

Inson Huquqlari Kafolatlarining O'zbekiston Respublikasi Hamda Xalqaro Huquq Normalarida Belgilanishi

*Isroilova Saxodat Otabek qizi*¹

Annotatsiya: Ushbu maqola Inson huquqlari bo'yicha davlat siyosati, inson qadr-qimmatining qanun hujjatlari bilan kafolatlanishi va davlat tomonidan himoya qilinishida xalqaro tajribalar va tarixiy rivojlanishni hisobga olgan holda konstitutsiyaviy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, inson manfaatlari, inson huquqlari, qadr-qimmat, inson sha'ni, davlat siyosati, qonun, deklaratsiya, xalqaro tajriba, shaxsiy huquq.

“Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir”. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishda Ombudsman institutining roli beqiyosdir.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

Ma'lumki, har qanday mamlakatning demokratik va insonparvarlik xususiyatlaridan biri bu - insonga bo'lgan munosabat, inson huquqlari va erkinliklari qanday himoya qilinayotganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ko'pgina mamlakatlar tarixiy rivojlanish jarayonida inson huquqlariga oid o'z qonunlar tizimini yaratgan.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yangi o'zbek milliy huquqiy tizimi tubdan shakllandi. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari yaratildi, inson huquqlariga oid qonunlar tizimi barpo etildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining II-bob, 13-moddasida ta'kidlanganidek, “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”. 1995 yil 23 fevral kuni MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Ombudsman instituti joriy etildi.

Milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarni tizimli va bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o'z modeli, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirildi. Shuningdek, inson huquqlari, qadr ulug'ligi diniy ta'limotlarda, xususan, islomda aniq izohlab berilgan. Shariat nuqtai nazaridan ham inson koinotning eng ulug' va oliy martabali zotidir. Qur'oni Karimning “Baqara” surasida (30-oyat) Olloh tomonidan farishtalarga xitob etilib, “Men (odamni) yer yuzida xalifa qilib yaratmoqchiman” deyiladi. Keyinroq 17-sura (70-oyat)da insonning maqomini ko'tarib, “biz odam bolalarini aziz va muqarrar qildik” deb ta'kidlanadi. Qur'onda barcha insonlar, ularning ijtimoiy mavqei, dini, millati, tili va irqidan qat'iy nazar teng va barobarliklari e'lon qilinib, darhaqiqat, biz sizlarni bir erkak va ayoldan yaratdik hamda bir-biringiz bilan tanishib, do'stlik va birodarlikda yashashingiz uchun sizlarni turli tuman qabila va elatlar qilib qo'ydik” (49 sura, 13-oyat) deyiladi. Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan.

¹ Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi



Yurtimizda inson huquq va erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamohang tarzda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham shu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga kamarbastalik qilmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur Markaz o'z oldidagi o'ta dolzarb sanalgan milliy harakat rejasini tuzish, Konstitutsiyamiz, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, mamlakatimizda inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berish, inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlarini yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda. So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqeyi yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, huquq normalari va konstitutsiyamizga ko'ra, inson huquqlariga va davlat suvirineteti g'oyalari sodiqligini tantanali ravishda e'lon qililib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda, davlatchilik rivojlanishining tarixiy tajribasiga asoslanib, inson huquqlari va erkinliklariga alohida bob ajratilganligi va xalqaro normalarga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Inson, uning sha'ni, qadr-qimmatini, shaxsiy daxlsizligi, fuqarolik huquqlari konstitutsiyada kafolatlanadi. Fikr yuritish va uni ifodalash, vijdon va din erkinligi, siyosiy huquqlarning konstitutsiyada ifoda etilishi, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi barcha qonunlarda belgilangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, inson huquqlari va uning erkinliklarini tan olgan yurtimizda inson huquqlarini xalqaro andozalariga mos ravishda rivojlantirish oshirilayotganda, inson huquqlari va qadr-qimmatini oliy ne'mat ekanligini tushunib yetishimiz maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida barcha huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, buni konstitutsiya va qonun normalarida ham ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan islohotlar, demokratik davlatchiligimizda erishgan inson huquqlari kafolatlari, xalqaro jahon tajribasidan foydalanib, qonun hujjatlarini ratifikatsiya qilish va ularning siyosatimizga moslashtirilishi, xalqaro huquqlarning ustunligi tan olinishi belgilanib qo'yilgan. Ayni paytda mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklarining huquqiy asoslarining yaratilishi va uning amalda qo'llanilishi hamda kafolatlanishini kuzatuvchi mexanizmlar qatorda Oliy Sud huzurida sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini taminlash bo'yicha tadqiqot markazi va Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Inson huquqi bo'yicha bo'linmalar va boshqarmalar samarali faoliyat yuritmoqda. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonning demokratik o'zgarishlariga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kecgayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Bunda jamiyatimizda mavjud milliy institutlar ichida inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazining o'ri beqiyosdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrir. "O'zbekiston" Toshkent-2023.
2. BMT "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 10.02.1948., O'zbekiston tomonidan 30.09.1991 yilda ratifikatsiya qilingan.
3. <https://constitution.uz/oz/pages/maqola55> Inson huquqlarini ta'minlash — bosh maqsadimiz.
4. lex.uz/acts/-20596 <https://lex.uz/acts/-20596>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsiya-inson-qadri-va-adolat-ustuni>.
6. <https://parliament.gov.uz/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya-inson-haq-huquqlari-kafolati#>
7. <https://ombudsman.uz/oz/news/2023/03/30/konstitutsiya-inson-huquqlari-ustuvorligi>.
8. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur .www.ziyouz.com.kutibxonasi

